

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.01.11-RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**JUMAKULOV SHUXRATJON ZAMIROVICH**

**MILLIY IQTISODIYOTDA BANDLIK NOAN‘ANAVIY SHAKLLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti.

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTASIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent 2023**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic  
sciences**

**Jumaqulov Shuxratjon Zamirovich**

Milliy iqtisodiyotda bandlik noan'anaviy shakllarini rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....3

**Жумакулов Шухратжон Замирович**

Совершенствование теоретических основ развития нестандартных форм занятости в национальной экономике.....26

**Jumakulov Shuxratjon Zamirovich**

Improving the theoretical foundations of developing irregular forms of employment in the national economy.....50

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....56

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.01.11-RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**JUMAKULOV SHUXRATJON ZAMIROVICH**

**MILLIY IQTISODIYOTDA BANDLIK NOAN‘ANAVIY SHAKLLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti.

**IQTISODIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirlar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida 2020.4.PhD/Iqt1534 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertasiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.  
Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) ilmiy kengash veb- sahifasi ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta’lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mirzakarimova Muyassarxon Mo‘minovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Hasanov Rustam Rabbimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xudayberdiev Zafar Raximovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertasiya himoyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, 246-02-24 faks:(99871) 246-90-80, e-mail: [rektor@nuu.uz](mailto:rektor@nuu.uz)).

Dissertasiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, 246-02-24 faks:(99871) 246-90-80, e-mail: [rektor@nuu.uz](mailto:rektor@nuu.uz)).

Dissertasiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “ \_\_\_\_\_ “ \_\_\_\_\_

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023 yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**X.P. Abulqosimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Q.Q. Mambetjanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**A.V.Vaxabov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonning aksariyat mamlakatlari mehnat bozorida bandlik noan'anaviy shakli ulushining oshib borishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayoni kechmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, "...2000 yilda mehnat bozorida bandlik noan'anaviy shaklida ishlovchi shaxslar salmog'i jamiga nisbatan 25-30 foizni tashkil etgan bo'lsa, COVID-19 pandemiyasi davrida u 40 foizgacha oshgan"<sup>1</sup>. Mehnatda bandlikning an'anaviy shakliga qaraganda, ushbu sohada yangi ish o'rinlarini yaratish moslashuvchan, kam xarajatli va samarali bo'lib, u aholi daromad manbalarini diversifikatsiya qilish orqali mehnat bozorida tanglikni yumshatishga xizmat qilmoqda. Hozirgi vaziyat mehnatda bandlikning egiluvchan, frilanserlik, autsorsingdan tortib, vaqtinchalik, o'zini o'zi band qilish kabi noan'anaviy shakllarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni taqozo etmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda mehnatda bandlikning noan'anaviy, innovatsion va prekariyal shakllari global miqyosda kechayotgan tendensiya sifatida o'rganilmoqda. Jumladan, ko'plab mamlakatlarning istiqbolga mo'ljallangan bandlik dasturlarida mehnatda bandlikning noan'anaviy shakli, uning mehnat bozoridagi roli va ahamiyatining ortishi, bandlikning ushbu shaklidan samarali foydalanish, tartibga solish va salbiy oqibatlarini yumshatishning ilmiy, uslubiy va amaliy jihatlari, ularning vujudga kelish va tarqalish omillari, ushbu sohada qo'llaniladigan tushunchalarni aniqlashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, munosib mehnat konsepsiyasi asosida aholi o'rtasida innovatsion, masofaviy bandlikni kengaytirish, o'zini o'zi band qilish bo'yicha faoliyat turlarini rivojlantirish, norasmiy bandlik shakli bilan prekariatni o'zaro bog'liqlikda tadqiq etish asosida aholi samarali bandligini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqish taqozo etilmoqda.

O'zbekistonda "...har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, uning ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish"<sup>2</sup> ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, mazkur yo'nalishdagi ishlarni tizimli va samarali tashkil etish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, respublikada "...ishsizlik darajasi hamon yuqori bo'lib, iqtisodiy faol aholi orasida 9,4% ni tashkil etmoqda. Norasmiy sektorda mehnat qilayotgan shaxslarning 38,4 foizi hamda mamlakatdan tashqarida mehnat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 46,1 foizini yoshlar tashkil etmoqda"<sup>3</sup>. Kelajakda mamlakatni barqaror rivojlantirish

<sup>1</sup> Дорохова, Наталья Васильевна Трансформация форм занятости населения в современной экономике Российской Федерации : теория, методология, практика : диссертация ... доктора экономических наук : 08.00.05 Москва 2020. // <http://dlib.rsl.ru/rsl01010000000/rsl01010255000/rsl01010255520/rsl01010255520.pdf>

Нестандартные формы занятости. Анализ проблем и перспективы решения в разных странах. Обзорная версия. Международное Бюро Труда – Женева: МБТ, 2017.; Е.Б.Аймагамбетов, А.М.Тажибаева. Нестандартные формы занятости населения: мировой опыт, проблемы и перспективы.//Вестник университета «Туран». 2022.(1). С.227-237

<sup>2</sup> // <https://lex.uz/docs/5841063>; <https://iiv.uz/oz/pages/ozbekiston-respublikasi-prezidentining-farmonlari>

<sup>3</sup> <http://library.ziynet.uz/uz/book/download/108632>;

<https://staff.tiame.uz/storage/users/463/articles/YdavdzhNj64XtLoLeV8KQvnIxnIPmslwa5GXWx83.pdf>

strategiyasida “Mehnat bozorida faol va sust chora-tadbirlarni amalga oshirish, xususiy mulkni muhofaza qilish, kichik va yirik biznes hamda hususiy tadbirkorlikni qo‘llab-qyvvatlash va tezkor rivojlantirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish”<sup>4</sup>ga qaratilgan vazifalarning belgilanishi mehnatda bandlik noan‘anaviy shakllarini rivojlantirish va norasmiy bandlikni qisqartirishning samarali usul va yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish masalalarini xozirgi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylantirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son ««O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida», 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 apreldagi PF-61-sonli “Yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018 yil 11 iyundagi PQ-3782-son “Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta‘minlashni rag‘batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 11 avgustdagi PQ-4804-son “Kambag‘al va ishsiz aholini tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020 yil 8 iyundagi PQ-4742-son “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 29 iyundagi PQ-300-son “Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko‘tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o‘qitish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 8 iyuldagi PQ-311-sonli “Avtotransport vositalarini boshqarishda va yo‘nalishsiz taksi faoliyatini amalga oshirishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish to‘g‘risida”, 2022 yil 30 avgustdagi PQ-366-son “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023 yil 23 fevraldagi PQ-70-son “Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mehnatda bandlik noan‘anaviy shakllarini rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga tegishli bo‘lgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-ahloqiy, madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Aholini mehnatda bandlik noan‘anaviy sohasida ish bilan ta‘minlash borasida uslubiy, nazariy va amaliy tadqiqotlar uzoq xorijlik iqtisodchi olimlar U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, J.B. Sey, A.Marshall, A.Pigu, Dj.B.Klark, Dj.M.Keyns, R.Xarrod, E.Xansen, R.Xiks,

---

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi 841-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

P.Samuelson, E.Felpslar<sup>5</sup>, noan'anaviy bandlik innovasion shakllarining rivojlanishi E.Toffler, X.Toffler, M.Kastels, Y.Shumpeterlar<sup>6</sup> tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlarida bandlik noan'anaviy shakllarining texnologik ukladlar bilan bog'langan holdagi tahlili V.N.Bobkova, H.A.Volgina, Ye.Ya.Varshavskaya, H.A.Vinokurov, V.Ye.Gimpelson, B.G.Zbyshko, V.V.Ishin, A.I.Kapelyushnikov, V.D.Mostova, K.M. Oganyan, A.A.Nikiforova, V.D.Royk, A.I.Rofe, N.M.Strelsova<sup>7</sup>, mehnatda bandlik noan'anaviy innovasion shakllari rivojlanishining bandlik prekarizasiyalashuviga ta'sirining tahlili V.Starostin, O.I.Shkaratan, Z.T. Golenkova va Yu.V. Goliusova, A.M.Kolot<sup>8</sup> va boshqalarning tadqiqotlarida amalga oshirilgan.

Respublikamiz iqtisodchi olimlari H.P.Abulqosimov, L.G.Maksakova, D.N.Rahimova, D.V.Rasulova, Z.A.Tolametova, R.A.Ubaydullaeva, S.Q.Qurbonovlar<sup>9</sup> demografik jarayonlar, ishchi kuchi migrasiyasining ichki mehnat bozorida vaziyatga ta'siri, mehnat salohiyati va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalarini tadqiq etishgan. K.X.Abdurahmonov, G.Q.Abdurahmonova, F.U.Mamarasulov, D.A.Ortiqova, Sh.R.Xolmo'minov, Z.R.Xudayberdievlar<sup>10</sup> mehnat bozorining nazariy va konseptual asoslari, kichik biznesda aholining munosib mehnat tamoyillari asosida bandlik darajasini oshirish va ekonometrik modellashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan. N.U.Arabov va M.M.Mirzakarimovalarning tadqiqot ishlarida mehnat bozori infratuzilmasi hamda egiluvchan bandlik shakllarini

---

<sup>5</sup>Смит А. Трактат о природе и причинах богатства народов. Пер. с англ. В.С. Афанасьева. - М.: Эксмо, 2007. - 960 с.; Маршалл А. Принципы экономической науки. - М.: 1993. Т.3.; Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег / Пер. с англ. проф. Н.Н.Любимова, под. ред. д.э.н., проф. Л.П.Куракова. - М.: МИЭМП, 2010.;

<sup>6</sup>Тоффлер, Э. Революционное богатство / Э. Тоффлер, Х. Тоффлер. - М.: АСТ, 2007.; Kalleberg A. L. Precarious work, insecure workers: Employment relations in transition // American sociological review. - 2009. - Vol. 74.1. - P. 1-22.; <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-standartnyh-form-zanyatosti-na-fizicheskoe-i-psihosotsialnoe-zdorovie-zhenschin-obzorissledovaniy>; Долженко Р. А. Трансакционные издержки использования новых форм трудовых отношений // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. 2014. №1. С. 168-173.; Фридмен М. Если бы деньги заговорили. - М.: 1998. - С. 145.

<sup>7</sup> Волгин Н.А. Экономика труда: (социально-трудовые отношения) / Под ред. Н.Л. Волгина, Ю.Д. Одегова. -М.: «ЭКЗАМЕН», 2009; Варшавская Е.Я. Гибкость занятости: зарубежный опыт и российская практика. Кемерово: Кемеровский государственный университет: Кузбассвуиздат, 2009. -С.64.; Варагина А.Е. Исследование роли малого и среднего бизнеса в России. Молодой ученый. [Электронный ресурс]. URL: <https://moluch.ru/archive/210/51512>;

[https://www.vcot.info/assets/files/dissovet/dissertations/4/Dissertatsiya\\_Musaeva\\_B.A..pdf](https://www.vcot.info/assets/files/dissovet/dissertations/4/Dissertatsiya_Musaeva_B.A..pdf); Гимпельсон В., Капелюшников Р. Нестандартная занятость в Российской экономике. Москва: Изд. дом ГУ-ВШЭ, 2006.

<sup>8</sup> Шкаратан О. И., Карачаровский В.В., Гасюкова Е.Н. Прекариат: Теория и эмпирический анализ/ наматериалах опросов в России:/994-2013)// Социологические исследования, 2015. N12.

<sup>9</sup> Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. - T.: TDIU, 2019. - 545 b.; <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/download/2465/661/4645>; Rasulova D.V. Bozor munosabatlari tizimida ishchi kuchi migratsiyasining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - T.: TMI, 2010.- 46b.;Qurbonov S.Q. Mehnat bozorida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishning samarali yo'llari. I.f.bo'yicha f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss. Avtoref. T.: 2023. 57 b.

<sup>10</sup>Rustamov E.E."Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish sharoitida aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.: 2019, 142 b.; Xolmo'minov Sh.R. Mehnat bozori rivojlanishining tahlili (monografiya). - T.: «Fan va texnologiya», 2016. - 308 b.; Xudayberdiev Z.R. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat bozorining amal qilish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. - T.: 2020 -42b.

rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotda bandlik tarkibining ilmiy asoslarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. D.A.Nasimov, O.A.Nabiev va B.E.Tog'aevlarning izlanishlarida esa zamonaviy bandlik shakllari, beqaror va norasmiy bandlikning yuzaga kelish sabablari, uni legallashtirish va tartibga solish mexanizmi, norasmiy mehnatda bandlikni aniqlashning metodologik asoslari tadqiq etilgan<sup>11</sup>.

Biroq, shunga qaramasdan, respublika iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida mehnatda bandlik noan'anaviy shakllarining ijobiy va salbiy jihatlari, jumladan, innovasion texnologiyalarning bandlik kasbiy-tarmoq tarkibiga ta'siri jarayoni, innovasion bandlik shakllari va beqarorliklarini aniqlash usullari va amaliyoti, noan'anaviy bandlikni tartibga solish mexanizmi yetarlicha o'rganilmagan. Mehnat bozoridagi vaziyatga global iqtisodiyotdagi tashqi tahdidlar, jumladan, COVID-19 pandemiyasi keltirib chiqargan inqiroz sharoitlarida noan'anaviy bandlikni rivojlantirishi, ayniqsa, respublika iqtisodiyotining hozirgi innovasion taraqqiyot yo'liga o'tishi davrida mehnat munosabatlaridagi o'zgarishlar, prekarial, norasmiy bandlik darajasining ortishi bilan bog'liq salbiy jarayonlar maxsus dissertatsiya ishi ob'ekti sifatida tadqiq etilmaganligi ushbu mavzuni tanlashga asos bo'lib xizmat qildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulugbek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq,

PZ-20170930109-son "Aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularni ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini kuchaytirish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-amaliy granti (2018-2020 y.y.) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Milliy iqtisodiyotda bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

mehnatda bandlik noan'anaviy shakllarini rivojlantirishga bag'ishlangan nazariy-konseptual tasavvurlarni umumlashtirish hamda uni mezon bo'yicha tasnifini ishlab chiqish;

mehnatda bandlik noan'anaviy shakllarini rivojlantirishning xorij tajribasidan foydalanish bo'yicha takliflar kiritish;

mamlakatda bandlik noan'anaviy shakllarini rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslarini tadqiq etish;

---

<sup>11</sup>Arabov N.U. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.:2018. – 75 b.; Mirzakarimova M.M. Milliy iqtisodiyotda bandlik tarkibini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.:2018. - 82 b.; Nasimov D.A.Raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d.(DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.:2020. 67 b.; Nabiev O.A. Aholining beqaror ish bilan bandligining ijtimoiy-mehnat munosabatlariga ta'siri. I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.:2021. 42 b.; Tog'aev B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida norasmiy mehnat bilan bandlik darajasini kamaytirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2021. 76 b.

O'zbekiston iqtisodiyotida bandlik noan'anaviy shakllarining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish orqali mavjud mavjud muammolarni aniqlash;

innovation taraqqiyot yo'liga o'tish davrida mehnatda bandlik zamonaviy noan'anaviy shakllarining rivojlanishi bilan bog'liq beqarorliklarni hal qilish yuzasidan ilmiy takliflar berish;

mehnatda bandlik noan'anaviy shakllarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

mehnatda bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish orqali norasmiy bandlikni qisqartirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

respublikada bandlik noan'anaviy shakllarini rivojlantirishning ekonometrik modeli va 2023-2027 yillarga mo'ljallangan muqobil ssenariylarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** bo'lib O'zbekistonda mehnatda bandlikning noan'anaviy shakllarida faoliyat ko'rsatuvchi aholi qatlami tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** mehnatda bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish va tartibga solish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, SWOT-tahlil, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

«Munosib mehnat konsepsiyasi» yondashuviga ko'ra, respublikada mehnatda bandlikning noan'anaviy shakllarini diversifikatsiya qilishga tomorqa yer uchastkalari egalarini kooperatsiya va kasanachilik asosida ish bilan band qilgan tadbirkorlik sub'ektlariga davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan har bir nafar tomorqa yer uchastkasi egasi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

ishchi kuchini takror hosil qilish yondashuviga ko'ra, aholida noan'anaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga ishsiz yoshlar va xotin qizlarni yangi turdagi kasb-hunar va xorijiy tillar bo'yicha o'qitish hamda malaka oshirish xarajatlarining BHMning 4 baravarigacha bo'lgan qismini Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan grantlar ajratish asosida qoplab berish orqali erishish taklifi nazariy jihatdan asoslangan;

mamlakatda noan'anaviy bandlikni tartibga solish mexanizmini o'z faoliyati davomida ish haqi fondini yiliga 1 dan 10 foizgacha oshirgan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga ular tomonidan to'langan ijtimoiy soliq summasining bir qismini qaytarib berish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

O'zbekiston iqtisodiyotida bandlik noan'anaviy shakllarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida 2023-2027 yillarga mo'ljallangan muqobil ssenariyli prognoz variantlari taklif etilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mehnatda bandlikning noan'anaviy shakllari to'liqsiz, vaqtinchalik, masofaviy va norasmiy bandlik bo'yicha tasniflangan bo'lib, bunda tasniflash belgisi sifatida an'anaviy mehnat sharoitlaridan farqlanuvchi mehnat shartnomasi; mehnat shartnomasini tuzmagan holda ishlash; qonunchilik asosida belgilangan me'yorlardan tashqaridagi ish vaqti davomiyligi; mehnatni tashkil qilishning noan'anaviy uslubi; ish beruvchining noan'anaviy maqomi (ro'yxatga olinmagan korxonalar, jismoniy shaxs, o'zini o'zi band qilgan shaxs va h.k.) tanlab olingan;

kasaba uyushmalari faoliyatida ilg'or axborot texnologiyalarini qo'llash, shu jumladan, mobil ilovalar yaratish, o'z huquqlarini himoyalash uchun "Elektron kasaba uyushmasi" xizmatlari, "raqamli" ish beruvchi, ishchilar ommasi uchun onlayn-jamoaviy harakat shakllari ko'rinishidagi kasaba uyushmalarining yangicha ishlash texnologiyasi taklif etilgan;

mehnatda bandlik noan'anaviy shakllarini tartibga solishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini hisoblash uslubiyati har bir guruh kesimidagi ko'rsatkichlar tizimini, ularni hisoblash algoritmi, axborot manbalari hamda yillik iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladigan yondashuv orqali takomillashtirilgan;

kichik tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qulay institutsional sharoit yaratish, soliq qonunchiligida yengilliklar paketini taqdim qilish, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ijtimoiy sug'urta tizimiga keng jalb qilish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish mexanizmi takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda xorijlik va milliy iqtisodchi olim va amaliyotchilarning tajribalari, foydalanilgan yondashuv, usul va nazariy materiallar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, xalqaro moliya institutlarining rasmiy manbalaridan olinganligi, tahlillarning statistik usullar orqali asoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar faoliyatiga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar mehnatda bandlikning noan'anaviy shakli tushunchasining mazmuni, uning tasniflash belgilari va mezonlari, baholash ko'rsatkichlarini aniqlash, rivojlantirish mexanizmi va prognozlashtirish ilmiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati davlat bandlik xizmati organlarining tahliliy va prognoz faoliyatini takomillashtirish, respublikada mehnatda bandlikning noan'anaviy, jumladan, raqamli iqtisodiyot sharoitidagi zamonaviy shakllarini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish jarayonida, oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Mehnat iqtisodiyoti", "Mehnat bozori va bandlikni ta'minlash" kabi fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Milliy iqtisodiyotda bandlik noan'anaviy shakllarini rivojlantirishning nazariy jihatlarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar asosida:

«Munosib mehnat konsepsiyasi» yondashuviga ko‘ra, respublikada mehnatda bandlikning noan’anaviy shakllarini diversifikatsiya qilishga tomorqa yer uchastkalari egalarini kooperatsiya va kasanachilik asosida ish bilan band qilgan tadbirkorlik sub’ektlariga davlatning byudjetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan har bir nafar tomorqa yer uchastkasi egasi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish orqali erishish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 avgustdagi PQ-366-sonli “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori 1-g-bandining 1-6-xatboshilarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2022 yil 21 sentyabrdagi 05/28-2-6/16-2118-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotda qo‘llanilishi respublikada mehnatda bandlik noan’anaviy shakllarining qamrovini kengaytirish, tomorqa yer uchastkalari egalarini kooperatsiya va kasanachilik asosida ish bilan band qilish va shu asosda aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi;

ishchi kuchini takror hosil qilish yondashuviga ko‘ra, aholida noan’anaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga ishsiz yoshlar va xotin-qizlarni yangi turdagi kasb-hunar va xorijiy tillar bo‘yicha o‘qitish hamda malaka oshirish xarajatlarining BHMning 4 baravarigacha bo‘lgan qismini Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan grantlar ajratish asosida qoplab berish orqali erishish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 avgustdagi PQ-4804-sonli “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining 12-bandini, b) qismini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2022 yil 21 sentyabrdagi 05/28-2-6/16-2118-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi oliy va professional ta’lim bilan qamrab olinmagan yoshlarni ish bilan ta’minlash, yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida frilanserlik faoliyatini keng rivojlantirish, maktabning yuqori sinflaridanoq kasbga o‘rgatish tizimini joriy etish, yoshlar tadbirkorlik klasterlari va konsalting xizmatlarini tashkil etish tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratgan;

mamlakatda noan’anaviy bandlikni tartibga solish mexanizmini o‘z faoliyati davomida ish haqi fondini yiliga 1 dan 10 foizgacha oshirgan kichik tadbirkorlik sub’ektlariga ular tomonidan to‘langan ijtimoiy soliq summasining bir qismini qaytarib berish orqali takomillashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 avgustdagi PQ-366-sonli “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining 3-ilovasi 9-bandini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligidan 2022 yil 21 sentyabrda olingan 05/28-2-6/16-2118-sonli ma’lumotnoma). Ushbu taklifning joriy qilinishi iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining mehnat

bozorida bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirishlarini rag'batlantirishga xizmat qiladi;

O'zbekiston iqtisodiyotida bandlik noan'anaviy shakllari rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida taklif etilgan 2023-2027 yillarga mo'jallangan muqobil ssenariyli prognoz variantlaridan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining respublikada bandlikni ta'minlashning 2027 yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarida tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, mehnat resurslari va ishsizlik hisobini yuritish, bandlikka ko'maklashish va tadbirkorlikni mahallabay rivojlantirish tizimini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligidan 2022 yil 18 martda olingan 01/00-03/ 15-2539-sonli ma'lumotnoma). Ushbu taklifning joriy qilinishi mamlakatda noan'anaviy, jumladan, innovasion tarmoqlarda yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha individual dasturlar tuzish, mahallalarda mikromarkazlar tashkil etib, ishsiz aholining hunarmandchilik va tadbirkorlik bilan shug'ullanishiga sharoit yaratish va shu orqali 2027 yil yakuniga qadar kambag'allikni sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Dissertatsiya tadqiqoti 5 ta, shu jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya natijalari bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish, shu jumladan, xorijda 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 1 ta skopus va 1 ta Web of Science bazasidagi jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 143 betni tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiyaning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari berilgan, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibiy tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Milliy iqtisodiyotda bandlik noan'anaviy shakllarini rivojlantirishning nazariy asoslari**", deb nomlanadi. Ushbu bobda mehnatda bandlikning noana'anaviy shakllarini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy qarashlar evolyusiyasi, mehnatda noan'anaviy bandlikning rivojlanish omillari, tasniflash mezoni va shakllari hamda bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasi va undan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Bundan tashqari, mehnatda bandlikning "noan'anaviy", "egiluvchan" tushunchalariga mualliflik ta'rifi

keltirilgan, zamonaviy jamiyatda bandlik noan'anaviy shakllarining tarqalishi ish vaqtidan oqilona foydalanish nuqtai nazaridan aniqlanib, mehnat bozoriga ta'sirini baholash ko'rsatkichlari taklif etilgan.

Tadqiqot ishida mehnatda bandlikning an'anaviy shakli bo'yicha industrlashgan jamiyat va yuqori darajada industrlashgan jamiyatning boshlang'ich bosqichi uchun xos bo'lgan bandlik, mezonlari bo'yicha – to'liq ish kuniga ega bo'lgan muddatsiz mehnat shartnomasi bo'yicha yollash ko'rinishida rasmiylashtirilgan bandlik sifatida, himoyalanganlik darajasi bo'yicha – mehnat qonunchiligida ko'zda tutilganidek, to'liq ijtimoiy himoyalangan bandlik sifatida ta'riflangan.

Tadqiqot jarayonida egiluvchan bandlikni ta'riflashga bo'lgan yondashuvlarning ikki jihati aniqlangan: ish beruvchi tomonidan mehnatda bandlikning noan'anaviy shakllari va sharoitlaridan (egiluvchan ish kuni, vaqtinchalik, mavsumiy ish va b.); o'zini o'zi band qilish hamda erkin harakat yuqori darajasiga, qarorlar qabul qilish va bu qarorlarni amalga oshirish vositalari, joy va vaqtni tanlashga yo'l qo'yadigan boshqa bandlik turlarini qo'llagan holda ishchi kuchidan foydalanish (1-jadval).

Muallifning fikricha, industrlashgan iqtisodiyot bilan almashinishga olib kelgan yuqori darajada industrlashgan rivojlanish bosqichi mehnatda bandlik noan'anaviy shakllariga bo'lgan talabning o'sishini belgiladi; sanoat sohasi qisqarishi sharoitida xizmatlar sohasining o'sishi vaqtinchalik, to'liqsiz, doimiy bo'lmagan bandlikdan keng foydalanish bilan birga bordi; kichik biznesning mehnat xarajatlarini qisqartirishga intilishi vaqtinchalik va tashkil qilinmagan mehnat bozorida ishlovchilarga bo'lgan talabning o'sishiga olib keldi; kompyuter texnologiyasi va internetning tarqalishi masofaviy bandlik uchun shart-sharoit yaratdi; ishchi kuchi tarkibidagi demografik siljishlar egiluvchan ish grafigiga ega bo'lgan ish o'rinlarining kengayishini ta'minladi.

Mazkur tadqiqot ishida mehnatda bandlik noan'anaviy shakllarini rivojlantirishning asosiy omillarini tahlil qilishga Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Munosib mehnat konsepsiyasi" dan kelib chiqqan holda yondashildi<sup>12</sup>. Munosib mehnat quyidagilarni ko'zda tutadi: bandlik, ijtimoiy himoya, ishlovchilarning huquqlari va ijtimoiy suhbat. Shu nuqtai nazardan tadqiqot ishida mehnatda bandlikning noan'anaviy shakllari ilg'or va regressiv shakllarga ajratib tavsiflangan.

Tadqiqot ishida aniqlanishicha, bandlikni identifikasiyalashning besh mezon yordamida tasniflash amaliyoti ko'p tarqalgandir: mehnat shartnomasini tuzish sharti, ish vaqti davomiyligi, ish joyining joylashgan o'rni, ish beruvchi turi, bandlik turi. Shu bilan bog'liq ravishda, mazkur tadqiqot ishida samarali bandlik talqinini kengaytiradigan uni ta'riflashning quyidagi qo'shimcha jihati taklif qilingan: samarali bandlik – bu munosib mehnat tamoyillarining amalga oshirilishini ta'minlaydigan, individlar va butun jamiyatning ish o'rinlariga, kasblar, ta'lim va hokazolarga bo'lgan mehnat ehtiyojlarini eng yuqori darajada to'liq qondiradigan

---

<sup>12</sup> Муносиб меҳнат концепцияси 1999 йилда ХМБ Бош директорининг Халқаро меҳнат конференцияси 87-сессиясида қилган маърузасида тақлиф этилган.

shakllarni zamonaviy iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga moslashtirish asosidagi aholi bandligidir. (1-jadval)

1-jadval

**Mehnatda bandlikning “Noan’anaviy” va “egiluvchan” shakllari tushunchalariga ta’riflarning rivojlanishi<sup>13</sup>**

Manba	Ta’riflanishi
A.L.Kalleberg (2009).	Mehnatda noan’anaviy bandlik – ishlovchi nuqtai nazaridan noaniq, oldindan aytib bo‘lmaydigan va xatarli bo‘lgan bandlikdir.
L.MakDovell, A.Batniskiy, S. Der (2009).	Mehnatda noan’anaviy bandlik ish joylari himoyalanganligi, ish joyida huquq va to‘lovlarning ham, ijtimoiy nafaqalar, past ish haqi va salomatlik uchun yuqori xatarning ham cheklanishi bilan bog‘liq barcha ish shakllarini o‘z ichiga oladi.
A.Vives, M.Amebl, M. Ferrer (2010) .	Mehnatda bandlik noan’anaviy shakli – bandlikning qamrovli jihatlari, ish beruvchilar va ishlovchilar o‘rtasidagi yakka shartnoma munosabatlari, past ish haqi va iqtisodiy mahrum qilish, ijtimoiy himoya va ish joyidagi cheklangan huquqlar hamda ish joyida qonunan taqdim etilgan huquqlarni ro‘yobga chiqarishning kuchsizligidir.
J.Benach, A. Vives, G.Tarafa, C. Delklos, C. Muntaner (2016).	
M. Menendez, J.Benach, S.Muntaner, M.Amebl, R.Okampo (2007).	Egiluvchan bandlik - o‘zgarayotgan iqtisodiy sharoitlarda ish beruvchilarning o‘z ishchi kuchlarining tarkibi yoki hajmini tez tuzatish qobiliyatidir.
V. Loretto, S.Viskerstaff (2015).	Ish joylarining egiluvchanligi – ishlovchilarning qachon, qayerda va qancha vaqtga ish bilan bog‘liq vazifalar bilan shug‘ullanishni mustaqil tanlash layoqatidir.
V.A. Bazjina, I.V. sygankova, O.Yu. Nikishina (2014).	Egiluvchan bandlik – bu ma’lum vaqt davomida ishlovchining xohishiga ko‘ra, o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan egiluvchan ish grafigi amal qiladigan bandlik shaklidir. Noan’anaviy bandlik faqat ish vaqti egiluvchanligi bilan tavsiflanmaydi.
X. Chung, M.Van der Xorst (2018).	Ikki turdagi egiluvchan bandlik, egiluvchan ish vaqti – ish grafiklari, masalan, ish vaqti boshlanishi va tugashi egiluvchanligini ta’minlaydi; va ish joyidagi ishlar egiluvchanligini, masalan, ba’zida uyda turib ishlash imkoniyatini ta’minlaydigan masofaviy ishdir.
R.R. Zlobin (2011).	Egiluvchan bandlik shakli aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish darajasini aks ettiradi. Egiluvchan ish sharoitida kishilarning mehnati ish kuni davomiyligini tartibga solish me’yorlari; mehnat faoliyatining muntazamligi; ish bajariladigan joy; faoliyat maqomi bilan farqlanuvchi tashkiliy- huquqiy shakllar yordamida tashkil qilinadi.
Mualliflik nuqtai nazari	Mehnatda bandlikning noan’anaviy shakli, deganda an’anaviydan og‘gan, yuqori darajada industrlashgan alohida bandlik shakli tushunilib, uning shakllanishi hozirgi zamon jamiyati taraqqiyotining yuqori darajada industrlashgan texnik-texnologik ukladga o‘tishi, globallashuv jarayoni va ob’ektiv-sub’ektiv omillar bilan belgilangan va industrlashgan turdagi bandlik an’anaviyligi mezonlariga kirmaydigan turli-tuman tashkiliy shakllarni qabul qiladi. Egiluvchan bandlik – egiluvchan ish vaqti mavjudligini ko‘zda tutadigan ishlash shakllari bo‘lib, ma’lum davr davomida ishlovchining xohishiga ko‘ra, rivojlanishi mumkin.

<sup>13</sup> Пеша А.В. Влияние нестандартных форм занятости на физическое и психосоциальное здоровье женщин. Обзор исследований. // Вестник Омского университета. Серия «Экономика». 2018. № 4 (64). –С.4. асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

XMT ta'rifiga ko'ra, to'liqsiz bandlik – bu ish soatlari soni odatdagi bandlikdan ancha kam bo'lgan bandlikdir. IHTT to'liqsiz bandlikdagi ish soatlari miqdorini haftasiga 30 soatdan kam belgilaydi<sup>14</sup>.

COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq inqiroz boshlangunga qadar jahonda yosh ishchilarning har to'rttasidan uchasi norasmiy sektorda ishladilar, ayni vaqtda 25 va undan katta yoshdagi aholi orasida ushbu ko'rsatkich 60 foizni tashkil etdi<sup>15</sup>.

**“O‘zbekiston iqtisodiyotida bandlik noan’anaviy shakllarining holati va rivojlanish tendensiyalari”**, deb nomlangan ikkinchi bobda mehnatda bandlik noan’anaviy shakllarini rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari, O‘zbekiston iqtisodiyotida bandlik noan’anaviy shakllarining rivojlanish tendensiyalari va unga pandemiya vaziyatining ta'siri tahlil qilingan va innovasion iqtisodiyotning rivojlanishi bilan muvofiq tarzda mehnatning prekarizasiyalashuvi bilan bog'liq muammolar aniqlangan.

Hozirgi vaqtda muddatli mehnat shartnomalari nafaqat xususiy sektorda, balki hatto byudjet tashkilotlarida ham keng tarqaldi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi o‘qish bilan ishni birga olib borayotgan shaxslar uchun qator qo‘shimcha imtiyozlar taqdim etadi, yagona soliq to‘lovini kiritish va soliq stavkalarini kamaytirish orqali soliq tizimini soddalashtirish yo‘li bilan norasmiy mehnatda bandlikni qisqartirish faol choralari ko‘rilmoqda<sup>16</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 iyundagi PQ-4742-sonli “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, o‘zini o‘zi band qilish tartibida mehnat faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tatbiq etilmaydi. Ushbu Qarorga muvofiq, 78 turdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullansa hamda o‘rnatilgan tartibda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tib, kamida bazaviy hisoblashning bir barobari (330 ming so‘m) miqdorida ijtimoiy soliq to‘lovini to‘lasa, 1 yillik mehnat stajiga ega bo‘ladi. Demak, ishsiz fuqaro 7 yil davomida har yili Pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy soliq to‘lovini amalga oshirsa, pensiya olish huquqiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyundagi PQ-300-sonli “Davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida davlat buyurtmasi asosida xotin-qizlarni kasbga o‘qitish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi” hamda 2022 yil 30 avgustdagi PQ-366-sonli “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ning 1-bandiga muvofiq, norasmiy bandlikni o‘rganish va tahlil qilish vositalari takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 iyuldagi PQ-311-sonli “Avtotransport vositalarini boshqarishda va yo‘nalishsiz taksi faoliyatini amalga

<sup>14</sup> OECD. 2014. Employment Outlook. P. 142.


<sup>15</sup> United Nations, Disability and Development Report, Realizing the Sustainable Development Goals by, for and with persons with disabilities, 2018, <https://www.un.org/development/desa/disabilities/publication-disability-sdgs.html>.

<sup>16</sup>O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari asosida tuzilgan.// [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

o'shishda qo'shimcha qulayliklar yaratish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2022 yil 1 sentyabrdan yo'lovchilarni haydovchidan tashqari, to'rttadan ortiq bo'lmagan o'rindiqlarga ega bo'lgan yengil avtotransport vositalarida tashish faoliyati o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxatiga kiritilishi munosabati bilan o'zini o'zi band qilgan shaxslar sonining keskin ortishiga va buning natijasida iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar sonining kamayishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 apreldagi PF-61-sonli "Yoshlarning bandligiga ko'maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, 2023 yil 1 maydan 2025 yil 1 yanvargacha qadar ish beruvchilarga (byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar, shuningdek, ijtimoiy soliqni 1 foiz stavkada to'lovchilar bundan mustasno) ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasi Davlat byudjetidan to'liq qoplab beriladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, 2000-2022 yillardagi ishsizlik darajasi va norasmiy bandlik darajasining o'sish sur'atlari o'rtasida teskari bog'liqlik kuzatilmoqda (1-rasm).



### 1-rasm. O'zbekistonda norasmiy bandlik va ishsizlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik<sup>17</sup>

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda ishsizlik darajasi 2000-2015 yillarda 7,3% dan 4% gacha pasaygani holda, norasmiy bandlik darajasi 27% dan 31,9% gacha oshgan. 2016-2022 yillarda esa ushbu tendensiya o'sish tomoniga o'zgarib, ishsizlik darajasi 4% dan 8,9% ga, norasmiy bandlik darajasi esa 31,9% dan 39,6% ga qadar oshganligini ko'rishimiz mumkin. Bu muallifning fikricha, statistik hisoblash tizimidagi o'zgarishlar, jumladan, ishsizlikni hisoblashning Xalqaro Mehnat Tashkiloti metodologiyasiga o'tilganligi, mehnat bozoriga kirib

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.// [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

kelayotgan yoshlar sonining ortib borishi natijasida norasmiy bandlikni qisqartirish borasidagi tadbirlar ta'siri hali sezilarli emasligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishida aniqlanishicha, respublika miqyosida 8,7 ming gektar foydalanilmayotgan yer maydonlarini o'zlashtirish orqali 412 ta kooperativlar tashkil etilib, kooperativlarga 19,2 ming nafar ishsiz, kam ta'minlangan va kambag'al oila a'zolari biriktirilgan va ularga kooperativlarning ustav fondiga a'zolik ulushi sifatida 45,0 mlrd.so'mlik subsidiya mablag'lari ajratilgan. Shaxsiy tomorqalarni rivojlantirish uchun 30,8 ming kam ta'minlangan, ayniqsa, "temir daftar" ga kiritilgan oilalarga yengil tipdagi issiqxona qurish, shaxsiy va dala tomorqasida ekishga urug'lar va ko'chatlar hamda sug'orish vositalarini xarid qilish uchun 84,6 mlrd.so'mlik subsidiya berilgan<sup>18</sup>.

Shundan kelib chiqqan holda, tadqiqotda respublikada tomorqa yer uchastkalari egalarini kooperasiya va kasanachilik asosida ish bilan band qilgan tadbirkorlik sub'ektlariga davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan har bir nafar tomorqa yer uchastkasi egasi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratish orqali mehnatda bandlikning noan'anaviy shakllarini diversifikasiya qilish mumkin ekanligi asoslandi.

Statistik kuzatishlar olib borishda bandlik shakllari va toifalari, sohalariga tegishli aniqliklar kiritiladi. Tadqiqot ishida ushbu usul yordamida O'zbekistonda 2000-2022 yillarda norasmiy bandlik hajmi va darajasini dinamikada hisoblendi (2-jadval).

**2-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida aholining norasmiy bandlik darajasi va ko'lamlarining dinamikasi<sup>19</sup>**

Ko'rsatkichlar	2000	2010	2015	2017	2019	2020	2022
Iqtisodiyotda bandlar o'rtacha yillik soni, ming kishi	8 983,0	11 628,4	13 058,3	13 520,3	13 541,1	13239,6	13737,4
Iqtisodiyotning rasmiy sektorida bandlar soni, ming kishi	X	641,1	2 808,5	3 749,8	4 291,5	5409,0	8292,9
Iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar soni, ming kishi	2 808,2	4 064,0	4 207,8	4 353,5	5 368,2	5668,9	5444,5
Iqtisodiyotda norasmiy bandlar o'rtacha yillik sonining bandlar o'rtacha yillik sonidagi ulushi, % da	31,3	35,0	32,2	32,2	39,6	42,8	39,6

Tahlil natijalari mehnatda bandlik noan'anaviy shakllarining tarqalganlik darajasi bo'yicha uch guruhga ajratish imkonini berdi: ko'proq tarqalganlari - vaqtinchalik va ShTX da bandlik; o'rtacha tarqalgani -to'liqsiz, egiluvchan, o'zini

<sup>18</sup>O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.//www.stat.uz

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida tuzilgan.//www.stat.uz

o‘zi band qilish shakllari; kamroq tarqalgani - frilans, masofaviy bandlik (3-jadval).

**3-jadval**

**Mehnatda bandlik noan’anaviy shakllarining tarqalganlik ko‘lami<sup>20</sup>**

Noan’anaviy bandlik shakllari	Yillar					
	2000	2010	2015	2020	2021	2022
Vaqtinchalik shartnoma, pudrat shartnomasi bo‘yicha ishlash	783,8	467,6	1656,8	1685,9	1703,8	1581,6
Shaxsiy tomorqa xo‘jaligida (ShTX) bandlik	1217,9	1630,2	1869,2	1707,3	1607,8	1943,8
To‘liqsiz, qisqargan bandlik	853,4	1197,7	1083,8	741,4	881,9	820,3
Uy xo‘jaligida bandlar soni	148,3	1253,9	1104,7	928,0	1097,5	773,8
O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni	970,2	1395,4	1475,6	1271,0	1275,8	1604,8
Patent bo‘yicha, yakka tartibdagi tadbirkorlikda bandlik	268,6	672,8	871,1	193,6	232,2	232,4
